‘‘FAG‘ONA VA XORAZM RAQS MAKTABLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI’’

Rajabova Mohlaroy

“Xoreografiya jamoalari rahbari” 2-kurs.

Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlar nomzodi,

Dotsent Po‘lat Tashkenbayev.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek milliy raqs san’ati tarixi, rivojlanishi, tarqqiyot bosqichlari, raqs san’ati maktablari va hududlaro milliy liboslarimizning o‘ziga xos xususiyatlari haqida hikoya qilinadi.

Kalit so‘zlar: lazgi, raqs, harakat, marosim, festival, raqqosa, san’at, milliy, qadimiy.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются своеобразные особенности Ферганской и Хорезмской школ узбекского национального танца. Анализируются историко-культурные основы формирования данных танцевальных школ, их исполнительская манера, пластическая выразительность, композиционная структура, характер движений, особенности музыкального сопровождения и сценического воплощения. Особое внимание уделяется различиям между плавной, лиричной и эмоционально насыщенной пластикой Ферганской школы и динамичной, яркой, выразительной манерой Хорезмской школы. Также раскрывается значение традиционных танцевальных элементов в сохранении национального хореографического наследия и их роль в развитии современной узбекской сценической хореографии. Исследование направлено на выявление художественно-эстетических особенностей двух региональных школ и определение их значения в системе национального хореографического искусства.

Ключевые слова:

Узбекский национальный танец, Ферганская школа, Хорезмская школа, хореография, танцевальная пластика, исполнительское мастерство, народный танец, национальное хореографическое наследие, сценический танец, традиция.

Abstract.

This article examines the distinctive features of the Fergana and Khorezm schools of Uzbek traditional dance. It analyzes the historical and cultural foundations of these regional dance schools, their performance styles, plastic expressiveness, compositional structures, characteristic movements, musical accompaniment, and stage interpretation. Particular attention is paid to the contrast between the smooth, lyrical, and emotionally expressive movements of the Fergana school and the dynamic, vivid, and highly expressive style of the Khorezm school. The study also highlights the importance of traditional dance elements in preserving Uzbekistan's national choreographic heritage and their role in the development of contemporary Uzbek stage choreography. The research aims to identify the artistic and aesthetic characteristics of these two regional dance schools and to determine their significance within the national choreographic art system.

Keywords:

Uzbek traditional dance, Fergana school, Khorezm school, choreography, dance plasticity, performance skills, folk dance, national choreographic heritage, stage dance, tradition.

O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi o‘zbek xalqining bitmas-tuganmas boyligi bo‘lib, asrlar davomida boyitilib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Bu bebaho meros o‘zbek xalqning o‘zligi va g‘ururi hisoblanadi. Haqiqatan ham, o‘zbek raqs san’ati boy madaniyatimizning ajralmas qismi xalqimizning dunyoni his qilish jarayonida o‘ziga xosligini aks ettiradigan san’at

turlaridan biridir. San’atning barcha turlari kabi raqs san’ati ham turmushi, hayot tarzi, tirikchilik o‘tkazishi jarayonida paydo bo‘lgan. Undagi harakatlar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, raqs elementlari dastlab odamlar tomonidan ovlangan, ularning hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan hayvonlarning harakatlariga taqliddan boshlangan. Keyinchalik ibtidoiy jamoa tuzumi davrida olovlar atrofida har xil harakatlar bilan aylanganligi, diniy marosimlar paytida raqsga tushishganligi, hatto oziqlanish uchun ovlaganlarida ov qurollarini ko‘tarib har xil harakatlar qilganliklari tarixdan ma’lum. Insoniyat jamiyat taraqqiyoti sari qadam qo‘yishi bilan o‘zlarining ehtiyojlari uchun ongli ravishda kurasha boshladilar.

Diniy marosimlarda ham, turli xil bazm va yig‘inlarda qo‘l va oyoq harakatlari orqali his tuyg‘ularini namoyon eta boshladilar. Ma’lumotlarga qaraganda, qadimgi “Avesto” marosimlari teatrlashtirilgan holda musiqa, qo‘shiq va raqslar hamohangligida o‘tkazilgan. Bu marosimlarda “Avesto”ning mifologik qahramonlari - “Mitra”, “Anaxita”, “Humo”, “Jamshid”larning xislatlari va qahramonliklari va sifatlari alohida professional ijrochilar tomonidan taqdim etilgan. Hatto Markaziy Osiyoda eng mashhur xudolardan bo‘lgan “Anaxita”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan marosimlarning katta qismini raqqoslar va aktyorlar tashkil etganligi haqida ma’lumotlar bor. Shunday qilib, bugun butun dunyo uchun madaniyatning “yuragi” deb baholanadigan raqs san’atiga tamal toshi qo‘yilgan. O‘zbek milliy raqsi eng munavvar qadriyatlarni, insoniy fazilatlarni, milliy an’analarni ifoda etgan san’atdir. Milliy raqslarimizdagi har bir harakat, ko‘z qarashlar, faqat millatimizga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ular xalqimizning hayoti, yashash tarzi, zavq-u shavqi, orzu- umidini ko‘rsatuvchi sahna asari, ohang va ritmga javoban inson yaralgan “aks-sado”dir. San’atshunos olima L.Avdeeva o‘zining “O‘zbek milliy raqsi tarixidan” nomli kitobida “Raqs- zamon va makonda mavjud san’at bo‘lib, bunda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratildi”, - deb yozadi. Xalqimiz madaniyatga boy xalq. Yurtimizning qay go‘shasiga bormang, o‘ziga xos an’ana, betakror qadriyatlarga ro‘baro bo‘lamiz.

Shu jumladan, har bir hududning o‘z milliy raqsi va milliy liboslari ko‘nglimizni shod etadi. Raqs san’atining tarixi esa bevosita uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog‘liq.

XX asr boshida (1927-1930-yillarda) xalq orasida yetishib chiqqan Muhiddin Qoriyoqubov boshchiligidagi badiiy truppada faoliyat ko‘rsatgan Usta Olim Komilov, Yusuf Qiziq Shakarjonovlar iste’dodli san’atkorlani o‘z saflariga oladilar. Usta Olim Komilovning shogirdlari Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva bilan birgalikda o‘zbek raqs san’ati maktabini yaratadilar. Usta Olim Komilov ijrosidagi betakror o‘zbek doira usullariga Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva raqs harakatlarini o‘ylab topadilar, o‘zlariga va truppadagi o‘z tengdoshlariga raqslar sahnalashtira boshlaydilar. Ular ijrosidagi “Duchoba”, “Katta o‘yin” kabi ko‘plab yakka va ommaviy raqslar xalq tomonidan katta quvonch bilan kutib olingan. Asta-sekin davr o‘tishi bilan iste’dodlar ko‘payib raqqosalar safi kengaya bordi. Shuning uchun Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyevalar o‘zbek raqs san’ati asoschilari hisoblanadilar. Ulardan qolgan “Tanovor”, “Munojot”, “Rohat”, “Paxta”, “Pilla” kabi asarlar ulkan raqs merosimizdir. An’anaviy san’atimizning ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov aytganlaridek, “Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir”. Shu bois, bugun o‘zbek raqs san’atida o‘ziga xos, o‘z uslubiga ega bo‘lgan Xorazm, Buxoro, Farg‘ona raqs maktablari tan olingan. Keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan Farg‘ona raqs maktabi uzoq tarixga borib taqaladi. Tarixga murojaat qilsak, Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanidan topilgan ayollar haykalchalarida raqs holati tasvirlangan. Yoki Qorabuloqdagi qabrdan topilgan ko‘zgu dastasiga ishlangan rasmda raqqosa tasviri gavdalangan. Har bir yaratilgan raqs namunasi xalqning kayfiyatidan, ichki histuyg‘ularidan darak beradi.

Xususan, Farg‘ona vodiysi raqslaridagi epchillik va chaqqonlik, chapanilik ruhi boshqa raqs maktablaridan ajralib turadi. Tog‘li, havosi toza, iqlim jihatdan qulay hududda joylashganligi, xalqining soda va samimiy, mehnatkash, uddaburon

xalq ekanligi raqs harakatlarida, ijro mahoratida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ustoz Mukarram Turg‘unboyeva o‘zbek raqs san’atining Farg‘ona maktabini ma’lum bir tizimga keltirdi va ulkan meros qoldirdi. Xalq orasida, sayillarda, to‘ylarda yurib, xalqning oddiy harakatlarida san’at yaratdi. U yaratgan san’atni bugun dunyo e’tirof etmoqda. 1957-yilda Mukarrama Turg‘unboyeva o‘zi sahnalshtirgan “Paxta” va “Pilla” raqslari bilan Moskvada o‘tkazilgan festivalda oltin medalni qo‘lga kiritdi va unga milliy raqs ansamblini tuzishni maslahat berishdi. Shunday qilib, 1957-yilning oktyabr oyida Zulayho Rahmatullayeva, Volya Romanova, A’lo Rahimjonova, Ira Rasulxo‘jayeva, Dilbar Abdullayeva kabi 12 nafar raqqosadan iborat “Bahor” ansambl o‘z faoliyatini boshlagan. Birin-ketin 15ta dastur yaratilgan. 1960-yili “Bahor” ansambli davlat raqs ansambliga aylantirildi, - dedi O‘zbekiston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev. 1967-yilda ansambl Yoshlar mukofotiga, oradan bir yil o‘tib esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ansambl unvoniga ega bo‘lgan. Ansambl Liviya, Marokash, Jazoir, Tunis, Hindiston, Malaziya, Singapur, Pokiston, Afg‘oniston, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamalakatlarda gastrolda bo‘lgan. Shu sabab ham, ular yaratgan asarlar umrboqiydir. Afsuski, xalqimizning ma’naviy-madaniy merosi oyoq osti qilingan va izchil o‘rganilmagan. Xalq ichidan chiqqan va asosiy faoliyatini xalq ichida olib borgan raqs san’ati ustalariga tahdidlar qilingan. Chunki ular o‘z raqslari bilan jamiyatdagi illatlarni fosh etishgan, oddiy xalqqa yaxshi kayfiyat ulashganlar, nurli hayot haqidagi orzulariga albatta, yetishishlarga ishontira olganlar va bunga erishdilar. Buning yaqqol namunasi sifatida Mukarrama Turg‘unboyeva tomonidan sahnalashtirilgan raqslarning xalqimiz qalbining to‘ridan joy olganligi, “Tanovar” kuyining chalinishi bilanoq ayol-qizlarimiz ro‘molining bir chetini ushlab asta-sekinlik bilan raqsga tushishi lirikani his etishi bu xalqimizning qon-qoniga singib ketganidan darak beradi.

O‘zbek raqs maktablaridan biri bo‘lgan Xorazm raqs maktabi o‘ziga xos tempa-ritmga ega bo‘libbugungi kunda nafaqat mintaqamizda balki dunyo hamjamiyatida ham o‘z mavqeiga ega bo‘ib bormoqda. Lazgi - nomoddiy madaniy merosimiz durdonasi. Raqsning barcha turlari kabi lazgining ham o‘ziga xos tarixi

bor. Bu tarix mana shu mo‘tabar zaminimizda asrlar bo‘yi yashagan ona xalqimiz taqdiri bilan uyqash va hamohang kechgan. Bundan olti-yetti yil oldin bobom Xivaga sayohatga bordilar. “Rohati jon lazgini tomosha qildim, yigirma yil keyin tug‘ilganimda xorazmchaga raqsga tushishni o‘rganardim. Xorazmlik og‘alardan lazgini tarixini so‘radim chiroyli qilib tushuntirib berishdi”, - deb aytgandilar. Bir kuni kechqurungi ziyofatdan so‘ng Xorazm shohi unga raqs tushib berishlari uchun xotinlari va kanizaklarini to‘pladi. Xotinlari orasida eng chiroyli nafislik bilan raqs tushib o‘ziga rom etgan bittasini tanladi. Qolgan xotinlar esa go‘zalning soyasida qolishni xohlamadilar. Raqibalardan biri raqs paytida uning oyoqlari ostiga munchoqlar va shirinliklarni tashladi. Sevimli xotin sirpanib yiqildi va oyog‘ini sindirib oldi. Sevgilisini ranjitmaslik uchun u qo‘l barmoqlarini yoyib raqsga tushdi. Shoh juda xursand bo‘lib, ayolning g‘alati harakatlarini yangi raqs deb qabul qildi. Shunday qilib, rivoyatlarga ko‘ra, xorazmcha Lazgi raqsi “qo‘llar va oyoqlarning “singan” harakatlari” natijasida paydo bo‘lgan ekan.

Bundan tashqari Odam Atoning jismiga ruhning kiritishi va jonlanishi obrazli ifodalaydi, degan fikrlar ham bor. “Lazgi” bu - nafaqat raqs, balki his-tuyg‘ularni, hissiyotlarni boshqaruvchi, odamlarning ruhiyatiga ta’sir etuvchi noyob san’atdir. Xorazmda “Lazgi”ning 9 xili mavjud: “Olov”, “Dutor”, “Qayroq”, “Masxaraboz”, “Garmon”, “Surnay”, “O‘g‘lon bola”, “Xorazm lazgisi”, “Zamonaviy lazgi”lar. Bizgacha yetib kelgan xotin-qizlar raqsini sahnaga olib chiqishda Xorazm tarixida eng mashhur - Onajon xalfa Sobirova kata xizmat qilgan. “Lazgi” harakatlarining o‘ziga xos xususiyati - bu yarim bukilgan oyoqlar, yelkalar va qo‘llar salgina silkinishining ustunligi, qo‘llarning tebranadigan harakatlari, oyoqlar bilan o‘ziga xos harakatlar hamda bo‘yin va boshning o‘ngdan chapga va chapdan o‘ngga harakatlanishidir. Xorazm raqsini ijro etish paytida yuz ifodalari nihoyatda ta’sirchan va hissiyotli ko‘rinish oladi. Raqs liboslari ham g‘ayrioddiyligi bilan ajralib turadi. Xorazm erkaklar raqs libosining ajralmas qismi bu qo‘pol mo‘ynali qalpoq bo‘lsa, ayollarning bosh kiyimi, aksincha, juda nafisdir. Raqqosalarning liboslari doim ko‘plab tangalar bilan bezatilgan bo‘ladi.

Umuman xulosa qilib aytganimizda, madaniyat bu-o‘zligimiz. O‘zbek milliy raqs san’ati madaniyat va san’atimizning yo‘g‘on, mustahkam ildizlaridan biridir. San’atimizni raqs maktablarisiz tasavvur qilish qiyin. Raqs-insonlar ruhiyatini davolovchi, qalb torlarini chertuvchi, musiqa hamohangligida mukammal obraz yaratuvchi bebaho san’atdir. Shu bilan bir qatorad “Raqs bu – so‘zsiz muloqat” hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuon Xo. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati. “Kamin-Press” MCHJ, “Adabiyot uchqunlari” MCHJ. Toshkent- 2016. - 72b

2. Sh.Qurbonova, X.Xursandov. Surxon raqs maktabi. “Nur sehri oshyonu” MCHJ bosmaxonasi. Toshkent - 2010. - 73b

3. O‘sha manba:12-bet

4. J. Muydinov, A.G‘ulomjonov. Musiqa san’ati orqali o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish. “Madaniyat va san’at tizimi sohalarining ustuvor yo‘nalishlari, muammo va yechimlari” konferensiyalar to‘plami. “Poligraf Super Servis” MCHJ. Farg‘ona-2020.-385b 5. Mas’ul muharrir:B.Sayfullayev. “Nomoddiy madaniy meros va folklor ijrochilik san’ati” konferensiyalar to‘plami. “Lesson press” nashryoti. Toshkent2016. - 260b 6. M. Tojimetova. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. № 43 (565), 2022-yil 1-mart. - 6b